

## SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON" ASARI TAHLILI

Xaydarova Marjona Rashid qizi

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Sa'diy Sheraziyning "Guliston" asari badiiy, axloqiy va didaktik jihatdan tahlil qilinadi. Asarning janri, mavzusi va tarkibiy qismlari o'rganilib, undagi hikmatli so'zlar, pand-nasihatlar va ularning ma'naviy- ma'rifiy ahamiyati ko'rsatib beriladi. Sa'diy Sheraziyning uslubiy xususiyatlari obrazlar tizimi va axloqiy qadriyatlarni yoritishdagi mahorati*

Tahlil qilinadi . Shuningdek, asarning o'zbek adabiyotiga va Sharq axloqshunoslik an'analariga ta'siri xususida xulosalar chiqariladi. Ushbu maqola " Guliston" asarining dolzarbligini qayta anglash va uni bugungi ma'naviy tarbiya jarayoniga moslashtirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Biz bilamizki, Markaziy Osiyoda umumbashariy svilizatsiya zarvaraqlaridan yuqori bir o'rinni olgan, shuningdek ulkan adabiy merosga ega bo'lgan allomalar fors-tojik adabiyotida juda ko'p uchraydi. Fors-tojik adabiyotida umumiy qiymatga ega bo'lgan, madaniy ma'naviy merosga ega bo'lgan, shuningdek adabiyotga benazir hissa qo'shgan Sa'diy Sheraziy jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutatafakkirlaridan biridir.

Umumbashariy svilizatsiyaga qo'shgan benazir hissasi tufayli Yunesko tomonidan 21-aprel kuni "Buyuk fors shoiri va gumanisti Shayx Sa'diy Sheraziyni xotirlash kuni" deb e'lon qilingani ham beziz emas. Biz bilamizki, Shayx Sa'diy Sheraziy ijodida doim inson, uning quvonch-u tashvishlari, baxt-u saodati, dard-u alamlari, kamoloti, shuningdek, tubanligi doim bosh mavzu bo'lib kelgan.

Hammamizga ma'lumki, shoirning bizga ma'lum bo'lgan , shuningdek xalq orasida mashhur bo'lgan asarlari Guliston va Bo'stondir. Ushbu ikki asarning o'zbek tiliga tarjimasi XX asrning 70-yillarida ilk bor nashr etilganligi haida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shoirning ijodidagi asarlar dunyoning o'nlab tillarga tarjima qilinganligi , uning qanchalik sermahsul ijodkor ekanligiga dalil bo'laoladi desak adashgan bo'lamiz albatta.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki, mutafakkirning asarlarini o'zbek tiliga Shoislom Shomuhammedov tarjima qilganligini aytishimiz mumkin. Biz bilamizki, "Guliston" didaktik asar. Shuningdek, bugungi kunda ushbu asarga qayta va qayta murojaat qilish odad tusiga aylanmoqda. Biroq, ushbu asar tarjimasi o'tgan asrning 70-yillarida ilk bor nashr etilganligi, shuningdek hozirgi kunda bu asarning o'zbekcha tarjimasini topish qiyinchilik tug'dirayotgani ham

sir emas. Hozirgi kunda mutafakkir ijodiga qiziqish yuqori bosqichga ko'tarilganligi bois, tarjima asarlarini topish qiyinchili tug'dirmayapti. Biz bilamizki, Sa'diy Sheroziy nasriy asrlarini Rustam Komilov tarjima qilgan.

Hammamizga ma'lumki, fors-tojik adabiyotida Sa'diyning o'rni beqiyos. Xususan, hayotiy tajribalari asosida yaratilgan "Bo'ston" (1257) va "Guliston" (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirganligi bizga ma'lum albatta. "Guliston" asari sakkiz bobdan iborat bo'lib, o'z tarkibiy tuzilishiga ega. Tarkibiy tuzilishi: debocha; birinchi bob - podshohlar siyrati zikrida ; ikkinchi bobi - darveshlar ahloqi zikrida; uchinchi bobi - qanoat fazilati zikrida ; to'rtinchi bobi - sukut saqlashnining foydalari zikrida;

beshinchi bobi - ishq va yoshlik zikrida ; oltinchi bob - qarilik va zaiflik zikrida,

Yettinchi bobi - tarbiyaa ta'siri zikida, sakkizinchi bob - suhbat odobi zikrida.

Ma'lumot o'rnida aytadigan bo'lsak, "Guliston" ga ergashib unga nazira sifatida ko'plab asarlar yozilgan. Ammo ular orasida faqat uchtasi mashhur bo'lganligi ma'lum. Ular : Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"i, Majiddinn Xofiyning "Xoriston" i, Habib Qoyning "Parishon"i , shuhrat qozonga deb aytaolamiz.

"Guliston' XVII asrlarda Yevropa tillariga tarjima qilinga va dunyo bo'ylab yoyila boshlagan . U ilk bor fransuz diplomati Andre Ris tomonida fransuz tiliga o'girilgan va 1634-yili Parijda nashr etilgan. Ushbu tarjima garchi mukammal bo'lmasada ommaga tarqalganliginni guvohi bo'lishimiz mumkin. Shundan so'ng boshqa tillarga jumladan rus tiliga ham tarjima qilingan. Xerman Vamperi shunday deb yozadi :" Sa'diy Sheroziy yolg'iz Eron emas, balki Osiyoni, Afrikaning hamma yerida hurmatli bir faylasufdir. Uning tarzi bayonining tarovati va ifodasining qimmatini Ovrupa ilmu adab ahli ham ko'pdan beri tan olganlar".

Shayx Sa'diy Sheroziy asarlari qadimdan o'zbeklar orasida mashhur. Biz bilamizki, o'tgan asrda Turkistonda Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini darslik sifatida o'quvchilarga o'qitilganligi maa'lum. Mumtoz adabiyotimizdagi allomalar ham Sa'diyning "Guliston" asaridan ta'sirlanib, ko'plab asarlar yozisshgan. Ular orasida Alisher Navoiyning "Mahbub ul - qulub ", Xojaning "Gulzor", shuningdek, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq " asarlari mashhurdir.

## XULOSA

Umuman olganda Sa'diyning 'Guliston" o'zinning nozik badiiy vazni va mazmuniy qiymaati bilan alohida vaznga egadir. Bu asarni o'rgaanish va tahlill qilish, shuningdek hayotga tatbiq etish insonlar hayotida muhim rol o'ynaydi.

Sa'diy Sheraziyning "Guliston" asari sharq adabiyoti va axloqshunoslik an'analarining yuksak namunasi sifatida insoniyat ma'naviy merosida o'rin tutadi. Asarda bayon etilgan hikmatli so'zlar, pand-nasihatlar va axloqiy qadriyatlar bugungi kunda ham insoniyat uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Sa'diy Sheraziyning badiiy mahorati, obrazlar tizimi va o'quvchiga ta'sirchan

tarzda fikr yetkazish uslubi asarni o'z davrida ham, hozirda ham yuqori baholanadigan asar darajasiga olib chiqdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Sa'diy Sheraziyning "Guliston" Toshkent : Abdulla Qodiriy nomli xalq nashriyoti, 1993.
2. Xayrullayev M. "Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari" Toshkent O'zbekiston 1971.
3. Hayitmetova A. "Bo'ston va o'zbek adabiyotti, Shayx Sa'diy va o'zbek adabiyoti". Tehron. Toshkent. 2004.